O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “IJTIMOIY TARMOQ” SEMANTIK MAYDONINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATI

Naimjonova Irodaxon Ma’rufjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Zamonaviy muloqot dunyosida ijtimoiy tarmoqlarning faol qo‘llanilishi axborot qabul qilish hamda muloqot qilish usullarining tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Natijada axborot almashinuvi tezlashib, kommunikativ jarayonlar yanada interaktiv va ommaviy tus olmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar insonlarning nutqiy faoliyati, til birliklaridan foydalanish xususiyatlari hamda yangi leksik birliklarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoq semantik maydonining o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni, ushbu leksik-semantik guruhning shakllanish xususiyatlari va jamiyatdagi kommunikativ ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoq, sotsiolingvistik, kommunikatsiya, noverbal birliklar, rasmiy muloqot, norasmiy muloqot, emoji, GIF, meme, stiker.*

KIRISH

Lingvistik maydon va uning tabiatini ochib berishga bo‘lgan qiziqish XX asrning o‘rtalaridan boshlangan bo‘lib, G.Ipsen, Y.Trir, V.Porsig, S.Ohman [2,3,4,5] singari jahon tilshunoslari maydonga murakkab lingvistik hodisa sifatida yondashib, uning ichki tuzilishi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. O‘zbek tilshunosligida tilning sistemaviylik tabiati, lingvistik maydon nazariyasining ildizlari, ichki strukturasi, turlari, va ularning o‘ziga xosliklari I.Qo‘chqortoyev, T.Mirzaqulov, N.Nishonova, H.Hojiyeva, A.Nurmonov, Sh.Iskandarovalarning [7,8,9,10,11] ilmiy tadqiqotlarida ma’lum miqdorda o‘z yechimini topgan.

Bugungi kunda jamiyatimizda ijtimoiy tarmoqlar juda katta rol o‘ynamoqda. Ijtimoiylashuvning eng qulay va to‘siqlarsiz yo‘li ham aynan shu platformalardir. Ilmiy nuqtayi nazardan, ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatdagi ta’siri ko‘p qirrali bo‘lib, ular nafaqat shaxslararo aloqalarni soddalashtiradi, balki madaniy, ijtimoiy va psixologik jarayonlarni ham shakllantiradi. Ijtimoiy tarmoq leksik birliklariga *post, like, repost, reels, story, profile, admin, friend, follow, follower* kabi leksik birliklarni misol qilishimiz mumkin va ular o‘zbek tiliga ingliz tilidan ayrim hollarda transliteratsiya hodisasiga uchrab, ba’zida kalkalash orqali, ayrim hollarda esa tarjimasisiz asl holicha qabul qilingan. Aksariyat hollarda tarjimasi rasmiy muloqotlarda, asl shakli esa norasmiy muloqotlarda qo‘llaniladi.

Ijtimoiy tarmoq orqali tilga kirib kelayotgan o‘zlashma birliklarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular avvallari o‘zbek tilida iste’molda bo‘lmagan yangi tushunchalarni ifodalaydi. Z.Aliqulov va S.Boymirzayevaning ta’kidlashicha, bunday leksemalar turli sohalarga tegishli: mafkura, savdo-sotiq, fan va texnika, kommunikatsiya tizimi[1, B.36]. Ijtimoiy tarmoq platformalari esa ushbu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Xususan, *post, profil, blog, bloger, bot, akkaunt, lifehack, hacker, domain, story, emoji* kabi birliklar o‘zbek tilida tarjimasiz yoki o‘zbekcha muqobili shakllanmasdan qabul qilinmoqda. Bu holat ingliz tilining ijtimoiy tarmoq

terminologiyasida “donor til” vazifasini bajarayotganini, o‘zbek tilining esa “qabul qiluvchi til” sifatida faoliyat ko‘rsatayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

1-jadval.

Ingliz va o‘zbek tillarida ijtimoiy tarmoq maydonining periferiya birliklarini o‘zlashtirish usullari

O‘zlashtirish usuli	Ingliz tilidagi asl birlik	O‘zbek tilidagi varianti
Transliteratsiya	post, blog, bot, emoji, GIF, story	post, blog, bot, emoji, GIF, story
Semantik tarjima	like, comment, link, share, follow	layk, izoh, havola, ulashmoq, obuna bo‘lmoq
Gibrid shakl	post (v.), profile (v.), like (v.)	post joylamoq, profil o‘zgartirmoq, layk bosmoq
O‘zbek asosida yasalma	blogger, online, offline, emotikon	blogerlik, onlayn, offlayn, smaylik

Ijtimoiy tarmoqlarga doir leksik birliklar sotsiolingvistik jihatdan rasmiy hamda norasmiy muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi. Dastavval norasmiy muloqotda muomalaga kiritilgan ijtimoiy tarmoq leksik birliklari, hozirda rasmiy nutq doirasida, asosan, ommaviy axborot vositalarida, rasmiy telekanallarda, telegram kanallardagi e’lonlarda, gazeta-jurnallarda ham qo‘llanilmoqda. Masalan:

“Agar translatsiya sizga yoqqan bo‘lsa, layk bosing va obuna bo‘ling!” (Gazeta.uz O‘zbekiston yangiliklari).

X.G.Xasanova noverbal vositalarning 9 ta vazifasini sanab o‘tganlar: shaxslar o‘rtasidagi, ramziy vazifasi, tasviriy vazifasi, moslashuvchi vazifasi, urg‘u berish: to‘ldiruvchi, qarama-qarshilik qilish, takrorlash, verbal vositalarning o‘rnini bosuvchi[6, B.34-39]. Ijtimoiy tarmoqlarda noverbal birliklar, ya’ni og‘zaki bo‘lmagan kommunikativ vositalar muhim rol o‘ynaydi va ular yozma muloqotda his-tuyg‘ular, niyatlar va kontekstni ifodalashda yordam beradi. Tilshunoslik va kommunikatsiya nuqtayi nazaridan, ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llaniladigan norasmiy muloqotning asosiy xususiyatlaridan biriga aylangan noverbal birliklarni quyidagi asosiy toifalarga ajratish mumkin:

1. Emotikonlar va emojilar: Bu birliklar ijtimoiy tarmoqlarda eng keng tarqalgan noverbal vositalardir. Emojilar yuz ifodalari, predmetlar, belgilar yoki harakatlar orqali his-tuyg‘ularni (masalan, xursand 😊, g‘amgin 😢, hammasi yaxshi 👍 kabi) yoki kontekstni ifodalaydi.

- Tug‘ilgan kuning bilan tabriklayman

- Rahmat 😊 (Telegramdan)

Yuqoridagi misol ijtimoiy tarmoqdan olingan bo‘lib, so‘z birlashmasida emoji minnatdorchilikni yanada samimiy qiladi. Insonlar his-tuyg‘ularini virtual ravishda ifodalash maqsadida emojilardan foydalanadilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,

emojilar yozma muloqotda noverbal ishoralarni qisman almashtirib, kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.

2. GIFlar va stikerlar: GIFlar (qisqa animatsion videolar) va stikerlar his-tuyg‘ularni yoki reaktsiyalarni yanada jonli ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, kulgili GIF yoki “tabrik” stikeri muloqotga hissiy boylik qo‘shadi. Ular ko‘pincha kontekstga bog‘liq bo‘lib, ma’lum bir madaniy yoki ijtimoiy guruh uchun tushunarli bo‘ladi.

3. Meme: ijtimoiy tarmoqlarda noverbal va verbal elementlarning kombinatsiyasi sifatida qaraladi. Ular ko‘pincha tasvir, matn va ramziy ma’nolarni o‘z ichiga oladi, bu esa noverbal kommunikatsiyani boyitadi.

4. Xeshteg (#): kontekstni aniqlashtirish yoki mavzuni ta’kidlash uchun ishlatiladi, bu noverbal signal sifatida talqin qilinadi. Masalan, #motivatsiya yoki #kulgu xeshteglari postning umumiy ohangini bildiradi.

5. Reaksiya tugmalari: “Like”, “Love”, “Haha” yoki “Wow” kabi tugmalar foydalanuvchining emotsional munosabatini so‘zsiz ifodalaydi. Bu noverbal javoblar ijtimoiy tarmoqlarda tezkor va universal kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bu noverbal birliklar ijtimoiy tarmoqlarda yozma tilning cheklovlarini yengib o‘tishga yordam beradi va muloqotni yanada ekspressiv qiladi. Ularning madaniy va kontekstual farqlarga bog‘liqligi tufayli ularni tahlil qilish tilshunoslik va semiotika sohasida alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, noverbal birliklarning haddan tashqari ishlatilishi ba’zan xabar aniqligini pasaytirishi mumkin, bu esa kommunikatsiya samaradorligiga putur yetkazishi xavfini tug‘diradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar tilning soddalashuvi va qisqarishiga olib kelmoqda, chunki foydalanuvchilar ko‘pincha qisqa va aniq ifoda shakllarini afzal ko‘rishadi. Masalan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llaniladigan til ko‘pincha norasmiy, frazeologik va kontekstga bog‘liq bo‘lib, bu tilning an’anaviy normalaridan chetga chiqishga olib keladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar ko‘p tillilik (multilingvizm) va kod almashinuvini (code-switching) rag‘batlantiradi. Foydalanuvchilar turli tillarni bir xabar ichida aralashtirib, global auditoriya bilan muloqot qilishda yangi kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqmoqdalar. Masalan, o‘zbek tilida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ko‘pincha o‘zbek, rus va ingliz tillarini aralashtirib, gibrid til shakllarini yaratadilar.

Biroq ijtimoiy tarmoqlarning tilga salbiy ta’siri ham kuzatilmoqda. Masalan, noto‘g‘ri imlo, grammatik xatolar va tilning soddalashishi an’anaviy til normalarini yo‘qotish xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Tilshunoslar bu jarayonni “tilning degradatsiyasi” deb atamasalar-da, tilning standart shakllariga rioya qilish darajasining pasayishi haqida ogohlantiradilar. Shunday bo‘lsada, ijtimoiy tarmoqlar tilshunoslik nuqtai nazaridan tilning dinamik rivojlanishi, yangi kommunikativ shakllar va ko‘p tilli muloqotning rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, ular tilning an’anaviy tuzilmalariga yangi chaqiriqlar keltirib, tilshunoslikda doimiy ravishda o‘rganilishi lozim bo‘lgan murakkab hodisani shakllantirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliqulov Z., Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. – Samarqand, 2009. – B.36.
2. Ipsen G. Der alte Orient und die Indogermanen. – Heidelberg, 1924. – 234 s.

3. Ohman S. Theories of the “Linguistic field”. – Word, volume 9, 1953. – P.123-134.
4. Porzig W. Wesenhafte Bedeutungsbeziehungen. –Beitrage zur Geschichte der deutschen Sprache und Literatur, 1934. – S.70-97.
5. Trir J. Das sprachliche Feld. – Neu Jahrbucher fur Wissen schaft und Jugendbildung, 1934. – S.428-449.
6. Xasanova X.G. Dialogik nutqda noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari. Monografiya. – Samarqand, 2023. – B.34-39.
7. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент, 2007. – 145 б.
8. Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси: Филол. фан. доктори. … дисс. – Тошкент, 1994. – 300 б.
9. Нишонова Н.Р. Ўзбек тилида “Ҳайвон” архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили: Филол. фан. номзоди. … дисс. – Тошкент, 2000. – 120 б.
10. Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусиятлари: Филол. фан. номзоди. … дисс. – Тошкент, 2004. – 142 б;
11. Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида талқин этиш: Филол. фан. доктори. … дисс. – Тошкент, 2005. – 180 б;
12. Ҳожиева Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусиятлари: Филол. фан. номзоди. … дисс. – Самарқанд, 2001. – 130 б.